



“O‘zsanoatqurilishbank” ATB korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati

Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid me'yoriy hujjatlar



- “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-419, 03.01.2017-y.)
- “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-931, 05.06.2024-y.)
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Farmon va Qarorlari (PF-6013, PQ-4761, PQ-5177, PQ-81, PQ-240, PF-200, PQ-210, PQ-228)
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati (526, 06.09.2022-y.)
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish Siyosati (527, 09.09.2022-y.)
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom (632, 29.01.2025-y.)
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti (587, 09.02.2024-y.)
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATB xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish Tartibi (588, 09.02.2024-y.)
- “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish Tartibi (568, 11.10.2023-y.)
- Boshqa ichki hujjatlar (sohaga oid 20 dan ortiq ichki hujjatlar)

Bankda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari

Bank xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar talablarini tushunish va ularga rioya etilishi

Bankda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va korrupsiyaga barham berish

Bankning barcha faoliyat yo'nalishlarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish

Aholi va tadbirkorlarning Bank faoliyati yuzasidan huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish

Bank xodimlari faoliyatining shaffofligi va xulq-atvor me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash

Korrupsiyaviy harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash

Ish yuzasidan sovg'alar hamda mehmondo'stlik belgilarini qabul qilish va berish bo'yicha talablar



Bank xodimlariga jismoniy va yuridik shaxslardan sovg'alar, mehmondo'stlik belgilari, jumladan qarz, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmatbaho qog'ozlar, kriptovalyuta, boshqa moddiy yoki xizmatlar ko'rinishidagi rag'bat vositalarini **olish hamda berish taqiqlanadi.**

Bundan konferensiya, seminar va turli shu kabi uchrashuvlarda taqdim etiladigan umumiy qiymati **bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) baravaridan oshmaydigan** buyumlar mustasno hisoblanadi.



Bank nomidan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (xizmat) uchrashuvlarida sovg'alar berish rahbar buyrug'iga muvofiq amalga oshiriladi.

Xodimlar o'rtasida o'zaro sovg'alar berish va olishda rioya qilinishi lozim bo'lgan talablar



sovg'a oluvchi uchun manfaatlar to'qnashuvi vaziyatini keltirib chiqarmasligi va sovg'a beruvchi oldida biror-bir majburiyatlarni yuzaga keltirmasligi lozim

sovg'a ochiq-oydin beriladi, sovg'a berilayotgani yashirilmaydi

sovg'ani faqat umume'tirof etilgan bayramlar (tavallud ayyomi, farzand tug'ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k.) munosabati bilan berishga ruxsat etiladi

sovg'alar bankning kamida uch nafar xodimi ishtirokida berilishi lozim

sovg'ani berish chog'ida sovg'a berish uchun sabab bo'lgan voqea-hodisa aniq bayon etiladi

sovg'aning umumiy qiymati (barcha soliq va yig'imlar bilan birga) bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) barobaridan oshmasligi lozim

bankning bir xodimi ikkinchi xodimga sovg'a olish uchun sarflaydigan summa miqdori har bir holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobaridan oshmasligi lozim

Manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va boshqarish



**“O‘ZSANOATQURILISHBANK” ATBNING
ODOB-AXLOQ KODEKSI
talablariga binoan**

**Bank xodimlari
tadbirkorlik yoki haq
to‘lanadigan boshqa
faoliyat bilan (pedagogik,
ilmiy va ijodiy faoliyatdan
tashqari)**

**shug‘ullanmasliklari
lozim**

(bundan O‘zbekiston
Respublikasi qonunlari va
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti qarorlarida
nazarda tutilgan hollar
mustasno)



Bankdagi ish joylariga
nomzodlarni lavozimga tayinlash
va rotatsiya qilishda manfaatlar
to‘qnashuvini dastlabki tarzda
oshkor qilish

**Bankda manfaatlar to‘qnashuvi
holatlari kelib chiqishini oldini
olish manfaatlar to‘qnashuvini
deklaratsiya qilishning quyidagi
shakllaridan foydalangan holda
amalga oshiriladi**

Mavjud yoki ehtimoliy
manfaatlar to‘qnashuvi
yuzaga kelish fakti bo‘yicha
ma’lumotlarni oshkor qilish

Manfaatlar to‘qnashuvi
to‘g‘risidagi ma’lumotlarni
har yil oshkor qilish
(yillik deklaratsiya)

Bank xodimining manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq majburiyatlari



O'z lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini vijdonan bajarishi va ularning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'z shaxsiy manfaatlar bilan bog'liq har qanday harakatlardan o'zini tiyishi

Lozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi

Mavjud manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, o'z ish yurituvdagi hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar o'zining bevosita rahbari va maxsus bo'linmani xabardor qilishi

O'zining bevosita bo'ysunuvidagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni bevosita yoki bilvosita o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi harakatlarga (harakatsizlikka) majburlamasligi

O'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan bank nazorati ostidagi tashkilotdan yoki uning tarkibiy bo'linmasidan ishga qabul qilish to'g'risida takliflar kelib tushganligi holati haqida bir ish kuni ichida xabar berishi

Boshqa xodimlarga nisbatan o'ziga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risida xabar berishi

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish maqsadida maxsus bo'linmaning so'roviga ko'ra ma'lumotlar taqdim etishi

Bank xodimining faoliyatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha cheklovlar

Xizmat mavqeini suiiste‘mol qilish orqali shaxsiy naf olish

Manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog‘ida ma’lumotlarni yashirish yoxud bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot taqdim etish

Biri boshqasiga bo‘ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilot(lar)da o‘rindoshlik bo‘yicha ishlash (bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno)



Bankning ta’sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo‘lish (bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo‘lgan aksiyalarining 10 foizigacha egalik qilish hollari mustasno)

O‘zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan bankning nazoratida bo‘lgan tadbirkorlik faoliyati subyektining aksiyalariga yoki ustav ustav fondi (kapitali)dagi ulushlariga egali qilish, shuningdek ushbu tadbirkorlik faoliyati subyektlarining boshqaruv organi a‘zosi bo‘lish (bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno)


O‘zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan bankda o‘ziga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda yoki o‘ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo‘lgan ishlarni ko‘rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etish, agar u qonunchilikka muvofiq qonuniy vakil bo‘lmasa

O‘zi mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan bankning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o‘zi ishtirok etish

Manfaatlar to'qnashuvini hal qilish choralari



Bankning korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha xabarlarni qabul qilishga mo'ljallangan ALOQA KANALLARI



Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar hamda manfaatlar to'qnashuvi hollari bo'yicha qonunchilikda belgilangan javobgarlik

JINOYAT KODEKSI

167-modda

- O'zlashtirish yoki rastarata yo'li bilan talon-taroj qilish (300 BHMgacha jarima yoki 5-10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish)

205-modda

- Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish (600 BHMgacha jarima yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish)

206-modda

- Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (600 BHMgacha jarima yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish)

209-modda

- Mansab soxtakorligi (600 BHMgacha jarima yoki 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish)

210-modda

- Pora olish (100 BHMgacha jarima yoki 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish)

211-modda

- Pora berish (100 BHMgacha jarima yoki 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish)

212-modda

- Pora olish-berishda vositachilik qilish (100 BHMgacha jarima yoki 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish)

213-modda

- Davlat organing, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organing xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish (100 BHMgacha jarima yoki 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish)

214-modda

- Davlat xizmatchisining moddiy qiymatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi (100 BHMgacha jarima yoki 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish)



MA'MURIY JAVOBGARLIK KODEKSI

193¹-modda

- Davlat organing, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organing xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish (30 BHMgacha jarima)

193²-modda

- Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qiymatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi (30 BHMgacha jarima)

193⁴-modda

- Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilik talablarini bajarmaslik (BHMning 3 baravaridan 30 baravarigacha jarima)

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!**

